



O‘TISH DAVRI SHE’RIYATINING YANGILANISH
TAMOYILLARI

Nishonova Xurshida Yusufjanovna

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi,

O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, tayanch doktorant

[*khurshidanishonova@gmail.com*](mailto:khurshidanishonova@gmail.com)

Annotatsiya. Ushbu maqola o‘zbek adabiyotida o‘tish davri she’riyatining yangilanish tamoyillarini tahlil qiladi. Tadqiqot badiiy tafakkur, poetik obrazlar, shakl-uslub va tilning estetik imkoniyatlari nuqtai nazaridan olib borilgan. O‘tish davri she’riyati individualizmning kuchayishi, poetik obrazlarning murakkablashuvi, metafora va ramziy ifodalar orqali yangi ma’no qatlamlarini yaratishi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, maqolada shakl va uslubdagi yangilanishlar, intertekstual aloqalar va klassik merosning zamonaviy talqini ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari o‘tish davri she’riyatining o‘zbek adabiyotidagi badiiy va intellektual salohiyatini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: o‘tish davri, o‘zbek she’riyati, poetik obraz, metafora, ramziy ifoda, shakl-uslub yangilanishi, intertekstual tahlil, badiiy tafakkur.

THE PRINCIPLES OF RENEWAL IN TRANSITIONAL PERIOD
POETRY

Nishonova Khurshida Yusufjanovna

Uzbekistan Academy of Sciences,

Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore, Doctoral Candidate

[*khurshidanishonova@gmail.com*](mailto:khurshidanishonova@gmail.com)



Annotation. This article analyzes the principles of renewal in Uzbek transitional period poetry. The study is conducted from the perspective of artistic thinking, poetic imagery, form-style, and linguistic aesthetic capabilities. Transitional period poetry is characterized by the growth of individualism, the complication of poetic imagery, and the creation of new layers of meaning through metaphorical and symbolic expressions. Additionally, the article examines formal and stylistic innovations, intertextual connections, and contemporary interpretations of classical heritage. The results reveal the artistic and intellectual potential of transitional period poetry in Uzbek literature.

Keywords: transitional period, Uzbek poetry, poetic imagery, metaphor, symbolic expression, formal-stylistic innovation, intertextual analysis, artistic thinking.

KIRISH

O‘zbekiston adabiyoti tarixida o‘tish davri she’riyati muhim estetik va intellektual bosqich sifatida e’tirof etiladi. Ushbu davrni faqat tarixiy yoki ijtimoiy kontekst orqali tushuntirish yetarli emas, chunki u badiiy tafakkur evolyutsiyasi va poetik tizimlar transformatsiyasini ham o‘zida mujassam etadi. O‘tish davri — bu bir estetik paradigmaning yakunlanishi va yangi poetik qarashlarning shakllanish jarayoni bo‘lib, u ijodiy izlanishlar, ziddiyatlar va yangilanishlar bilan boyitilgan murakkab hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur davr she’riyatining eng muhim xususiyati shundaki, badiiy tafakkur individuallashadi. Oldingi davrlarda ustuvor bo‘lgan kollektivlik va ijtimoiy-g‘oyaviy yo‘nalish asta-sekin shaxsiy idrok va ichki ruhiy kechinmalar bilan almashtiriladi. Shoir o‘z ichki dunyosiga yuzlanadi, qalb va ong ziddiyatlarini ifodalaydi, shuningdek, insonning psixologik holatini

chuqurroq tadqiq qiladi. Shu tariqa o'tish davri she'riyatida psixologizm va sub'ektiv idrok markaziy o'rin egallaydi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, o'tish davri she'riyati o'zbek adabiyotining keyingi rivoji uchun nazariy va estetik poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu bois o'tish davrini chuqur o'rganish, poetik yangilanish tamoyillarini aniqlash va badiiy tafakkur evolyutsiyasini tadqiq qilish ilmiy jihatdan katta ahamiyatga ega.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot o'tish davri she'riyatining badiiy yangilanish tamoyillarini chuqur tahlil qilish maqsadida kompleks ilmiy yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy va poetologik metodlar integratsiyalashgan holda ishlatildi, bu esa o'tish davri she'riyatining oldingi adabiy bosqichlar bilan uzviy bog'liqligini, ijtimoiy va madaniy kontekstdagi o'zgarishlarni aniqlashga imkon berdi. Shu bilan birga, struktural-semantik tahlil yordamida she'riy matnlarning ichki tuzilishi, poetik obrazlarning ko'p qatlamli semantik xususiyati va ramziy mazmuni o'rganildi. Tadqiqot jarayonida germeneytik yondashuv ham qo'llanilib, o'quvchi va shoir o'rtasidagi muloqot, ochiq ma'nolar tizimi va talqin erkinligi tahlil qilindi. Shuningdek, poetologik va komparativ tahlil usullari orqali shakl, uslub, til va metaforik vositalardagi yangilanishlar aniqlangan, intertekstual aloqalar va klassik merosning zamonaviy talqini ham batafsil o'rganildi. Shu yondashuvlar kombinatsiyasi o'tish davri she'riyatining badiiy, semantik va intellektual jihatlarini tizimli va mukammal o'rganishga imkon yaratib, ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish uchun mustahkam nazariy poydevor taqdim etdi.



NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'tish davri she'riyatida badiiy yangilanishlar aniq va tizimli xarakterga ega. Avvalo, poetik tafakkur individualizmga o'tganligi aniqlanadi, bu esa shoirlarning ichki olamini, ruhiy ziddiyatlarini va psixologik kechinmalarini markaziy mavqega olib chiqadi. She'riy matnlarda ichki monolog, ong oqimi va sub'ektiv idrok vositalari keng qo'llanilgan, bu esa o'quvchiga chuqur psixologik tahlil qilish imkonini beradi.

Shuningdek, poetik obrazlar murakkablashib, ko'p qatlamli semantik struktura kasb etadi. Obrazlar nafaqat voqelikni aks ettiradi, balki shoirning falsafiy va estetik qarashlarini ifodalaydi. Metafora, ramz va intertekstual aloqalar orqali she'riy matnning interpretatsion imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi.

Shakl va uslub jihatidan ham yangilanishlar aniqlangan. Erkin she'r shakli ustuvor bo'lib, poetik ritm va ohang ichki hissiyotga moslashadi. Til estetik jihatdan boyiydi, yangi ifodalar, kinoya va metaforik vositalar poetik matnga chuqur semantik qatlamlar qo'shadi. Shu tariqa o'tish davri she'riyati an'anaviy va zamonaviy elementlarni uyg'unlashtirib, o'ziga xos badiiy tizim yaratadi.

MUHOKAMA

O'zbek adabiy tafakkuri taraqqiyotida o'tish davri she'riyati alohida ilmiy-nazariy e'tiborni talab qiladigan murakkab estetik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur davr she'riyatining asosiy xususiyatlaridan biri badiiy tafakkurning sifat jihatdan yangilanishidir. Oldingi bosqichlarda ustuvor bo'lgan jamoaviy fikrlash tarzi va ijtimoiy-g'oyaviy determinizm asta-sekin o'z o'rnini individual ong, shaxsiy idrok va sub'ektiv tajribaga bo'shatadi. Natijada she'riy tafakkur markaziga insonning ichki dunyosi,

uning ruhiy kechinmalari, ong osti qatlamlari, ekzistensial iztiroblari chiqadi. Bu esa adabiyotda psixologizmning chuqurlashuviga, inson ruhiyati tasvirining yanada nozik va murakkab shakllarda ifodalanishiga olib keladi. Bunday yoʻnalish sheʼriyatni tashqi voqelikni tasvirlashdan koʻra, inson borligʻining ichki mohiyatini anglashga yoʻnaltiradi.

Badiiy tafakkurdagi ushbu transformatsiya poetik obraz tabiatiga ham sezilarli taʼsir koʻrsatadi. Oʻtish davri sheʼriyatida obraz endilikda oddiy tasviriy birlik sifatida emas, balki koʻp qatlamli semantik tizim sifatida namoyon boʻladi. Unda denotativ maʼno bilan bir qatorda konnotativ qatlamlar, ramziy va assotsiativ maʼnolar ustuvorlik kasb etadi. Shu tariqa obraz oʻzining estetik yukini kengaytiradi, oʻquvchidan esa faol talqin va intellektual ishtirokni talab etadi (Xursanov, 2020, 58). Bu jarayon sheʼriyatni yopiq maʼno tizimidan ochiq interpretatsion maydonga olib chiqadi.

Shakliy izlanishlar ham oʻtish davri poetikasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Anʼanaviy vazn tizimlari – aruz va barmoq bilan bir qatorda erkin sheʼr shaklining keng qoʻllanilishi poetik tafakkurning erkinlashuvini ifodalaydi. Erkin sheʼr tashqi ritmik meʼyorlardan voz kechgan holda ichki ohang, intonatsiya va hissiy impulsga tayangan holda shakllanadi. Bu esa sheʼriy ifodaning tabiiyligini oshiradi, muallifning individual uslubini yanada ravshanlashtiradi (Pardayev, 2020, 68). Natijada sheʼriyat shakl jihatidan ham mazmun bilan uygʻun holda yangilanadi.

Til masalasi oʻtish davri sheʼriyatida alohida nazariy ahamiyat kasb etadi. Til endi faqat kommunikativ vosita sifatida emas, balki estetik fenomen sifatida qaraladi. Shoirlar tilning ichki imkoniyatlarini kengaytirishga, yangi semantik va stilistik qatlamlarni ochishga intiladilar. Metafora, ramz, kinoya kabi badiiy vositalarning funksional yuklamasi ortadi (Lotman, 1970, 152). Shu bilan birga, xalqona ifoda vositalari bilan zamonaviy poetik tajribaning uygʻunlashuvi tilning ekspressiv imkoniyatlarini yanada boyitadi. Natijada sheʼriy nutq koʻp qatlamli va semantik jihatdan zich struktura kasb etadi.

O‘tish davri she‘riyatida intertekstual munosabatlar ham faol tus oladi. Shoirlar o‘z matnlarini avvalgi adabiy an‘analar bilan dialog holatiga keltiradilar. Klassik merosga murojaat qilish, uni zamonaviy kontekstda qayta talqin etish orqali adabiy xotira faollashadi. Bu jarayon nafaqat tarixiy uzviylikni ta‘minlaydi, balki yangi poetik ma‘nolarni yuzaga chiqaradi. Natijada an‘ana va innovatsiya o‘rtasida dialektik birlik yuzaga keladi.

Falsafiylikning kuchayishi ham o‘tish davri she‘riyatining muhim belgilaridan biridir. Shoirlar inson va borliq o‘rtasidagi munosabatlarni, vaqt va abadiyat muammosini, hayotning ontologik mohiyatini poetik tafakkur orqali idrok etishga intiladilar (Umarova, 2022, 105). Bu esa she‘riyatni oddiy hissiy ifodadan yuqori darajadagi intellektual-estetik tafakkur shakliga olib chiqadi. She‘r mazmunida ekzistensial savollar, ontologik izlanishlar, metafizik kechinmalar ustuvorlik kasb etadi.

Mavzu va muammo doirasining kengayishi ham ushbu davr poetikasining xarakterli jihatlaridan biridir. Ijtimoiy, axloqiy, ma‘naviy hamda individual muammolar o‘zaro tutashgan holda yoritiladi. Insonning erkinlikka intilishi, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyat, qadriyatlar tizimining inqirozi va yangilanishi (Nazarova, 2023, 51) kabi masalalar chuqur badiiy tahlil qilinadi. Bu esa she‘riyatni milliy doiradan chiqib, umuminsoniy mazmun kasb etishiga olib keladi. Poetik tafakkurdagi sintez jarayoni ham o‘tish davri she‘riyatining muhim xususiyatidir. Turli estetik yo‘nalishlar – realizmning hayotiylikka asoslangan yondashuvi, romantizmning idealistik ruhiyati va modernizmning eksperimental izlanishlari o‘zaro uyg‘unlashadi. Bu esa yangi poetik tizimning shakllanishiga xizmat qiladi. Mazkur sintez jarayoni she‘riyatni bir yoqlama rivojdan saqlab, uni ko‘p qirrali estetik hodisaga aylantiradi.

Muallif pozitsiyasining o‘zgarishi ham alohida e‘tiborga loyiq. Shoir endilikda didaktik va monologik uslubdan voz kechib, o‘quvchi bilan teng huquqli muloqotga kirishadi. Matn ochiq struktura kasb etadi, unda ko‘p

ma'nolilik va interpretatsion imkoniyatlar ustuvor bo'ladi. Bu esa o'quvchini passiv qabul qiluvchidan faol talqin etuvchiga aylantiradi.

Poetik obrazlarning individuallashuvi va ramziylashuvi badiiy tafakkurning chuqurlashuvini ifodalaydi. Obraz endi voqelikning aks ettiruvchisi bo'lish bilan cheklanmay, uni qayta yaratuvchi estetik modelga aylanadi. Shu tariqa obraz orqali muallifning individual dunyoqarashi, estetik ideali va falsafiy qarashlari ifodalanadi. Vaqt va makon kategoriyalarining talqini ham o'zgaradi. Vaqt sub'ektiv idrok etiluvchi, psixologik va falsafiy mazmunga ega kategoriya sifatida namoyon bo'ladi. Makon esa inson ruhiy holati bilan uyg'un holda talqin etiladi. Bu esa poetik matnda yangi semantik qatlamlarning yuzaga kelishiga imkon yaratadi.

Ichki monolog, ong oqimi kabi ifoda usullarining qo'llanilishi inson onginging bevosita tasvirini yaratishga xizmat qiladi. Bu usullar orqali shoir insonning ichki kechinmalarini bevosita, vositachilarsiz ifodalash imkoniga ega bo'ladi. Natijada badiiy matn psixologik jihatdan yanada chuqurlashadi.

O'tish davri she'riyati badiiy tafakkurning erkinlashuvi bilan ham ajralib turadi. Mafkuraviy cheklovlarning susayishi ijodiy erkinlikni kengaytiradi, bu esa yangi poetik shakllar va mazmunlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Shoir o'z estetik qarashlarini erkin ifodalash imkoniga ega bo'ladi.

XULOSA

Umuman olganda, o'tish davri she'riyati o'zbek adabiyotining rivojida yangi bosqichni boshlab bergan, badiiy tafakkur va poetik tizimlarning tubdan yangilanishiga sabab bo'lgan muhim estetik hodisadir. Bu davrda shakllangan poetik tamoyillar keyingi adabiy jarayon rivojiga mustahkam asos yaratdi. Shu jihatdan o'tish davri she'riyatini o'rganish nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy adabiy tafakkurni anglash uchun ham muhim nazariy manba hisoblanadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Назарова Ш. XX аср бошлари ўзбек шеъриятининг янгиланиш тамойиллари (янги ўзбек шеърияти контекстида): Филол. фан. док. (DsC)... дисс. автореф. – Тошкент, 2023. – 77 б.
2. Умарова Н. Янги ўзбек шеъриятида лирик тафаккур ва миллий этиканинг бадий уйғунлиги: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD)... дисс. – Қарши, 2022. – 144 б.
3. Хурсанов Д. Ҳозирги ўзбек шеъриятида хронотоп поэтикаси: Филол.фан.бўйича фалс. д-ри (PhD)... дисс.автореф. – Самарқанд, 2020. – 49 б.
4. Pardayev Z. Istiqlol davri she'riyatida xalqona pafosning yangilanishi: Filol. fan. bo'yicha fals. d-ri (PhD)... diss. — Toshkent, 2020. – 148 b.
5. Юрий М. Лотман, *Структура художественного текста*. Ленинград, 1970. – 220 с.

